

Ramozonova Sonya Asqarali qizi

Termiz davlat pedagogika instituti magistranti

sonyaramozonova@gmail.com

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO'LLARI

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'tiladigan texnologiya fanida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llariga oid o'quv materiallari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, innovatsiya, foydalanish yo'llari, texnologiya fani, turli xil texnologiya.

ANNOTATION: This article provides educational materials on ways to use innovative technologies in the technology subject taught in primary classes. Keywords: Primary class, innovation, ways of use, technology subject, various technologies.

Keywords: Craft, industry, activity, tailoring, handicraft, blacksmithing, pottery, goldsmithing, national, profession.

Bugungi kunda ta'lim jarayonlarida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O'quvchilarning fikr doirasi dunyoqarashi va ongini o'stirish, ularni erkin tnglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirish muhim masaladir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lganligi sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Shu tufayli boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyati kattadir. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu esa o'qituvchilarning vazifasi, mas'uliyati ekanligini ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya fani jarayonlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirish hamda baholashdan iborat bo'lganligi sababli innovatsion texnologiyalar orqali dars jarayonini olib borish ahamiyatlidir.

Texnologiya darslarida pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda texnologiya fanidan amaliy ishlar bajarish, turli xil ranglar bilan ishlash juda qiziqarli jarayon hisoblanadi.

O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'atish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir. Boshlang'ich sinflarda texnologiya fani jarayonlarida o'quvchilarning fanga bo'lgan motivini oshirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, yangi bilimlarni egallashga undaydi. Innovatsion texnologiyalar esa bu jarayonlarning tezlashishiga va o'quvchilarning faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Texnologiya fani mashg'ulotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshini bilim saviyasini hisobga olish kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o'yin mashqlaridan foydalanib, amaliy ishlar bajartirish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrof-muhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalardan foydalanib o'tilgan darsda o'quvchilar o'z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyish qilishga erishadilar, jamoa bilan ishlash malakasiga ega bo'ladilar, o'zgaralar fikrini hurmat qilishni o'rganadilar. Bu esa, darsning samaradorligini oshirib, ta'lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o'qitish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-53-son qarori. -<https://lex.uz/ru/docs6787995>
2. "Barkamol avlod yili" Davlat Dasturi, - T: O'zbekiston, 2010
3. Mavlonova R.A. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Metodik qo'llanma. - T: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti, 2005
4. Abduqodirov A.A, Begmatova N.V, Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyati (o'quv-uslubiy qo'llanma). Qarshi:Nasaf. 2011
5. Axmedova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zlashtirish darajasini aniqlash va tahlil qilish. Bola shaxsini rivojlantirishning dolzarb muammolari mavzusidagi 2 xalqaro anjuman. - T: 2008.